



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2026-YIL – MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2026-yil 24-iyul, № 150 (9321)

Juma

Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.



YAGONA VATAN, YAGONA XALQ BO'LIB, YANGI HAYOT VA KELAJAK YARATAYLIK!



OCHIQ VA OQILONA SIYOSATNING BEQIYOS SAMARALARI

Darhaqiqat, mamlakatimizning yuksak iqtisodiy salohiyati, iqtisodiyot tarmoqlarida qo'lg'a kiritilayotgan yuqori o'sish ko'rsatkichlari xalqaro darajada munosib e'tirof etilmoqda. "Fitch Ratings" va "Moody's" xalqaro reyting agentliklari mamlakatimiz suveren kredit reytingini bir pog'ona yaxshilagan shunday deyshga asos bo'la oladi.

"Fitch Ratings" hisobotida qayd etilishicha, jahondagi hozirgi inqirozli pallada O'zbekiston iqtisodiyotda yuqori o'sish salohiyatini saqlab qolgan sanoqli davlatlardan biri bo'lib turibdi. Uning ekspertlari yalpi ichki mahsulot hajmining o'sishi 2026-yilda 6 foizni, 2027-2028-yillarda esa o'rtacha 6,4 foizni tashkil qiladi deya baholamoqda. Buning asosiy omillardan biri sifatida tarkibiy o'zgarishlar izchil davom ettirilayotgani keltiriladi. Ya'ni oqilona pul-kredit siyosati yuritilib, xususiyashtirish jarayoni shaffofligi ta'minlanyapti, biznes yuritish tobora liberalashtirilmoqda.

Jahon banki ham O'zbekistonda YIM o'sishini ijobiy baholab, avval e'lon qilingan

prognozlari yangilagan e'tiborga molik.

Gap shundaki, Jahon banki 2026-yilgi prognozni 0,4 foiz bandga – 6,4 foizgacha yaxshilagan bo'lsa, 2027-yilgi prognozni 0,8 foiz bandga – 6,7 foizgacha oshirdi. Bu qayta ko'rib chiqilgan prognozlar O'zbekistonda iqtisodiy o'sish dinamikasi o'rta muddatli istiqbolda avval kutilganidan ham kuchliroq bo'lishini ko'rsatmoqda.

Ekspertlarning fikricha, O'zbekistonda izchil davom ettirilayotgan chuqur tarkibiy islohotlar, investitsiyaviy faollik, qulay biznes muhiti, kreditlashning kengayishi, aholi daromadlarining ortishi, eng asosiysi, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan yuritilayotgan ochiq va oqilona iqtisodiy siyosat mamlakat iqtisodiy taraqqiyotini yangi bosqichiga ko'tarmoqda.

O'z xalqining istiqbolda emas, ayni zamonda – shu bugun farovon hayot kechirishi, dunyoning eng baxtli va boy odamlari qatorida bo'lishini istagan Millat yetakchisi bugungi natijalar bilan cheklanib

E'tirof

Jahon iqtisodiyotida saqlanib turgan beqarorlik hamda global moliya bozorlaridagi noaniqliklarga qaramasdan keyingi yillarda O'zbekistonda makroiqtisodiy ko'rsatkichlar muttasil yaxshilanib, barqaror o'sish sur'atlari kuzatilmoqda. Xususan, 2026-yilning birinchi yarmida mamlakatimiz iqtisodiyoti 8,5 foiz o'sdi. Bunda sanoatda 8 foiz, xizmatlar sohasida – 16,9, qurilishda – 13,8, qishloq xo'jaligida 4,7 foiz o'sish ta'minlangani muhim omil bo'ldi.

Shu bilan birga, investitsiyalar hajmi 28 mlrd. dollarga, eksport esa 14,4 mlrd. dollarga yetdiki, bu global iqtisodiy o'sish sekinlashgan hozirgi murakkab sharoitda jahon hamjamiyati Yangi O'zbekistonni ishonchli savdo-sarmoyaviy hamkor sifatida tan olganining yorqin ifodasidir.

YANGI

O'ZBEKISTONNING MA'NAVYI QUDRATI



Mamlakatlarning qudrati haqida gap ketganda, odatda iqtisodiy o'sish, zamonaviy texnologiyalar, sanoat, harbiy salohiyat yoki ulkan qurilishlar tilga olinadi. Bular, albatta, davlat taraqqiyotining muhim ko'rsatkichlaridir. Ammo har qanday moddiy yuksalishning ildizi ko'zga ko'rinmaydigan yana bir beqiyos boylikka – millatning ma'naviy qudratiga borib taqaladi.

Nigoh

Ma'naviy qudrat esa tasodifan paydo bo'lmaydi. U asrlar davomida shakllangan milliy xotira, ma'rifat, tafakkur va kitob bilan kamol topadi.

Darhaqiqat, kitob – inson bilimini boyitadigan vositagina emas. U millatning xotirasi, xalq vijdoni, davrlar o'rtasidagi ma'naviy ko'prikdir. Kitob o'qilgan jamiyatda fikr yashaydi. Fikr yashagan jamiyatda esa taraqqiyot to'xtamaydi.

Davlatimiz rahbari "Yoshlarda bolalik chog'idan kitobga mehr uyg'otish, mustaqil fikr va keng dunyoqarashni shakllantirish ularning hayot yo'llarida mustahkam zamin bo'ladi", deya bejiz ta'kidlamagan. Zero, kitob insonga faqat ma'lumot emas, dunyoqarash beradi. U voqealar ortidagi ma'noni anglashga, haqiqatni yolg'ondan, ezigulikni yovuzlikdan ajratishga o'rgatadi. Shu bois kitobxonlik darajasi yuksak xalqning ma'naviy immuniteti ham mustahkam bo'ladi. Bugun Yangi

O'zbekistonda kitobxonlikni davlat siyosati darajasiga ko'tarish ortida ham ana shunday chuqur falsafa mujassam.

Tafakkur kitob bilan shakllanadi dedik. Shu ma'noda, har bir yangi kutubxona millat kelajagiga yo'naltirilgan sarmoyadir. Zotan, kitob o'qib, yetuk bilimli, mustaqil fikrli, Vatani taqdiriga daxldorlik hissi bilan yashaydigan inson bo'lib kamolga yetgan navqiron avlod, shubhasiz, buyuk kelajakni barpo etadi.

Yangi O'zbekistonning bugungi qudrati nafaqat keng ko'lami bunyodkorliklarda, jahonda o'z so'zi va o'rniga ega bo'lib borayotganida, balki ma'rifatni yuksak qadrlaydigan, kitobni hayot ehtiyoji deb biladigan jamiyatni barpo qilayotganidadir. Bunday jamiyatni hech bir g'ayir kuch o'z tanlagan yo'lidan qaytarolmaydi, parokanda etolmaydi. Ilg'or tafakkurli xalq, albatta, o'z maqsad-muddasiga yetadi.



Senat qo'mitasida

SUV TEKIN EMAS, ENDI UNING HISOBI YURITILADI



Oliy Majlis Senatining Agrar, suv xo'jaligi masalalari va ekologiya qo'mitasi majlisida veterinariya sohasida davlat nazoratini takomillashtirish, suv resurslaridan oqilona foydalanish va iste'molchilar huquqlarini yanada ishonchli himoya qilishga qaratilgan qonunlar dastlabki tarzda muhokama qilindi.

Xususan, "Davlat veterinariya nazorati takomillashtirilishi munosabati bilan "Veterinariya to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish haqida"gi qonun davlat veterinariya nazorati tizimini yanada takomillashtirish, milliy qonunchilikni Jahon savdo tashkilotining Sanitariya va fitosanitariya choralarini to'g'risidagi bitimi hamda Jahon

hayvonlar sog'lig'i tashkilotining xalqaro kodekslari talablariga uyg'unlashtirishga qaratilgan. Bundan tashqari, qonunda veterinariya tadbirlarini amalga oshirishda hayvonlar kasalliklarining oldini olish muhimligi, profilaktika tadbirlarining davolash choralariga nisbatan ustuvor qo'llanilishi, veterinariya nazoratidagi tovarlar xavfsizligini ta'minlashga oid normalar mustahkamlanmoqda.



MEHNAT QONUNCHILIGIDA ILK BOR AKS ETAYOTGAN TUSHUNCHA

Oliy Majlis Senati Yoshlar, xotin-qizlar, madaniyat va sport masalalari qo'mitasining majlisida "Xalqaro mehnat standartlari milliy qonunchilikka implementatsiya qilinishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksiga o'zgartirish va qo'shimcha kiritish to'g'risida"gi qonun dastlabki tarzda ko'rib chiqildi.

Muhokamada ta'kidlanganidek, endilikda ish va mashg'ulotlar payti shaxsni kamsituvchi belgilar qatoriga "terisining rangi" hamda "siyosiy qarashlari" kabi tushunchalar ham qo'shilmogda.

Shuningdek, Mehnat kodeksi yangi 81-moddaga bilan to'ldirilib, mehnat va mashg'ulotlar davomida shahvoniy shilqimlikka yo'l

qo'ymaslikning huquqiy asoslari belgilanmoqda.

Ushbu yangi norma bilan ish joyida "shahvoniy shilqimlik" tushunchasi ilk bor mehnat qonunchiligida huquqiy jihatdan mustahkamlanadi va ish beruvchilar zimmasiga mehnat jamoasida shahvoniy shilqimlikdan xoli xavfsiz mehnat muhitini yaratish majburiyatini yuklaydi.



Oliy Majlis Qonunchilik palatasida

MUHIM TAKLIFLAR ILGARI SURILDI

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Tadbirkorlik, raqobatni rivojlantirish va sanoat masalalari qo'mitasi tomonidan Elektr energiyasi, neft mahsulotlari va gazdan foydalanishni nazorat qilish inspeksiya qo'mitasining "Yoqilg'i-energiya resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish hamda behuda sarflanishning oldini olish borasida amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida"gi axboroti eshitildi.

Ta'kidlanganidek, keyingi yillarda mamlakatimizda yoqilg'i-energiya resurslaridan foydalanish samaradorligini yanada oshirish, energiya resurslarini tejash va ulardan oqilona foydalanishni ta'minlash, sohaga raqamli texnologiyalarni keng joriy etish borasida keng ko'lami chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Inspeksiya tomonidan joylarda 11 374 ta profilaktika tadbiri o'tkazilgan. O'rganishlar davomida 4 301 ta nstandart gaz jihozlari aniqlanib, ularning standart gaz jihozlari almashirilishi ta'minlangan. Buning natijasida 2 348,1 ming kubometr tabiiy gaz iqtisod qilingan.

Shuningdek, 1 641 ta

obyektdagi qurilmalar tegishli ko'riklardan o'tkazilgan. Aniqlangan masalalarning aksariyati bartaraf etilishi natijasida esa 308 ta avariyaning oldi olingan, qurilma va tarmoqlardagi 1,05 mln. kVt/soat texnologik yo'qotishlar kamaytirilishiga erishilgan.

Eshituv davomida deputatlar tomonidan sohada qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar ijrosi, davlat nazoratining samaradorligi, energiya resurslarini hisobga olish va ulardan oqilona foydalanish tizimi, huquqbuzarliklarning oldini olish hamda mas'ul idoralar faoliyati natijadorligi atroflicha muhokama qilindi.

Sohada mavjud tizimli



muammolarning sabablari, ularni bartaraf etish bo'yicha amaliy choralar hamda qonunchilikni yanada takomillashtirishga doir takliflar ko'rib chiqildi.

Qo'mita eshituv doirasida bildiriladigan taklif va tavsiyalar sohadagi huquqiy bazani yanada takomillashtirish, davlat nazorati mexanizmlarini zamonaviy talablar asosida rivojlantirish, energiya resurslarining samarali hisobini yuritish va ulardan oqilona foydalanishga qaratilgan islohotlarning izchil davom ettirilishiga xizmat qilishi ta'kidlandi.

Yakunda kun tartibidagi masala yuzasidan qo'mitaning tegishli qarori qabul qilindi.



ILM-FAN, TA'LIM VA YOSHLAR – TARAQQIYOTNING MUSTAHKAM TAYANCHI

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Fan, ta'lim, madaniyat, sport va yoshlar masalalari qo'mitasi tashabbusi bilan "Fan-ta'lim, sport va madaniyat sohalarini tartibga soluvchi huquqiy asoslarning takomillashtirish va bunda parlamentning o'rnini mavzuida davra suhbatini o'tkazildi.

Mamlakatimizda ilm-fan, ta'lim, madaniyat, sport va yoshlar sohalarida islohotlar izchil ro'yobga chiqarilmogda. Yangi tahrirdagi Konstitutsiya, "O'zbekiston – 2030" strategiyasi, shuningdek, sohalariga oid qonunlar va Prezident hujjatlari bu jarayonlarga mustahkam huquqiy zamin yaratdi.



DARYODIL

(Doston)



3-sahifaga qarang.



Zahid RAFIQ:

O'ZBEKISTON – MINTAQADAGI YETAKCHI IQTISODIY VA INVESTITSIYA MARKAZI

O'zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligining 35 yilligi arafasida Pokistonning yirik sanoat va investitsiya kompaniyalaridan biri – "HRL Group" boshqaruvi raisi Zahid Rafiq "Dunyo" AA muxbiriga eksklyuziv intervyu berdi.

Intervyu

– Bu yil Yangi O'zbekistonda keng ko'lami islohotlar boshlanganining o'n yilligi nishonlanmoqda. Siz ushbu o'n yillik yangilarning jarayon natijalarini qanday baholaysiz va mamlakatda amalga oshirilgan eng muhim o'zgarishlar sifatida nimalarni aytasiz?

– So'nggi o'n yil davomida Yangi O'zbekiston xalqaro biznes hamjamiyati e'tiborini tortgan ulkan va ta'sirchan o'zgarishlarni amalga oshirdi. Islohotlar iqtisodiyotni modernizatsiya qildi, davlat institutlarini mustahkamladi, investitsiya muhitini yanada yaxshiladi, mahalliy va xorijiy investorlar uchun ochiqlik va shaffoflikni ta'minladi. Bu jarayon O'zbekistonning xalqaro maydondagi nufuzini yuksaltirib, uni Markaziy Osiyoning eng jadal rivojlanayotgan va istiqbolli iqtisodiyotlaridan biriga aylantirdi. Mamlakatning iqtisodiy liberallashtirish, infratuzilmani rivojlantirish va xususiy sektorni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan siyosati barqaror taraqqiyot uchun mustahkam poydevor yaratdi.

Eng katta yutuqlardan biri – O'zbekistonning iqtisodiy

islohotlarni mintaqaviy hamkorlik va xalqaro integratsiyaga qaratilgan uzoqni ko'zlovchi siyosat bilan uyg'unlashtira olgani.

Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, innovatsiyalarni rag'batlantirish va tashqi savdoni kengaytirishga qaratilgan siyosat Pokiston va boshqa davlatlar kompaniyalari uchun yangi imkoniyatlarni ochdi.

Ishonamanki, so'nggi o'n yildagi yutuqlar faqat boshlanishi. O'zbekiston Markaziy va Janubiy Osiyoni bog'lovchi yetakchi iqtisodiy va investitsiya markazlaridan biriga aylanadi.

– Ushbu vaqt mobaynida O'zbekiston va Pokiston o'rtasidagi aloqalar sezilarli darajada kuchaydi. Ushbu sheriklikning qaysi natijalarini eng muvaffaqiyatli deb hisoblaysiz va kelgusida qaysi qo'shma loyihalar yoki hamkorlik yo'nalishlari ustuvor bo'lishi lozim?

– O'zbekiston va Pokiston o'rtasidagi munosabatlar kuchli siyosiy iroda va mintaqaning farovonligiga qaratilgan umumiy yondashuv asosida sezilarli darajada mustahkamlandi. Savdo, investitsiyalar, infratuzilma, logistika hamda biznes subyektlari o'rtasidagi hamkorlik jadal rivojladi.



YANGI OʻZBEKISTONNING MAʼNAVIY QUDRATI



Zominda maʼrifatning nurli manzili

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan ezgu gʻoya – mamlakatimizda milliy kitobxonlik harakatini rivojlantirish tashabbusi bugun keng quloch yoymoqda. Kitobxonlik va xalqimizning mutolaa madaniyatini rivojlantirish masalasi davlat siyosati darajasiga koʻtarildi. Yurtboshimiz tashabbusi bilan “Milliy kitobxonlik harakati” dasturi keng koʻlamda amalga oshirilmoqda.

Mazkur ezgu tashabbus doirasida Jizzax viloyatining Zomin tumanida “Shohrux” nomli shaxsiy kutubxonaaning faoliyat boshlashi ham hudud madaniy hayotidagi muhim va quvonchli voqeadir. Taniqli siyosatshunos, olim, jamoat arbobi va Oliy Majlis Senati aʼzosi Qudratilla Rafiqovning saʼy-harakati va fidoyiligi samarasi oʻlaroq barpo etilgan mazkur maʼrifat maskani 50 ming nusxadan ziyod kitoblar fondiga ega.

Xususan, bu yerdan taniqli yozuvchi va shoirlar asarlari, maʼrifatparvar adiblarimiz yaratgan adabiy-tarixiy bitiklar, shuningdek, jahon klassiklari qalamiga mansub durdonalar, yangi nashrlar oʻrin egallagan. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari boʻlimi alohida ahamiyat kasb etadi. Bu boʻlimdan joy olgan kitoblar davlatimiz rahbari tomonidan mamlakatimizda keyingi oʻn yilda olib borilayotgan yangilanishlarni, kelgusi taraqqiyotimizning poydevori qanday qayilayotganini, xalqimizning urib turgan qalbini aks ettiradi.

Ushbu muassasaning Oʻzbekiston Milliy kutubxonasi fondiga onlayn ulangani oʻquvchilarga 1 millionta kitobning elektron shaklidan Zominda turib foydalanish imkonini beradi. Shuningdek, uning kitob fondidan elektron portal orqali dunyoning istalgan joyida turib foydalanish mumkin.

Mazkur kutubxonada barcha yosh toifalaridagi insonlar uchun keng shart-sharoitlar yaratilgan. Yaʼni u faqatgina yoshlarni emas, aholining barcha

qatlamlarini qamrab olish imkoniga ega. Chunki kitob bilan faqat navqiron avlod emas, yoshi ulugʻlar ham doʻstlashishlari zarur. Binobarin, yoshlar, birinchi navbatda, oilada kattalardan oʻrnak oladi. Shu maʼnoda, 100 oʻrinli oʻquv zali bir vaqtning oʻzida barcha yosh toifasidagilar uchun xizmat koʻrsatadi.

Ziyo maskani kitob, ijod va sifatli xizmatlarni bir joyda jamlagan zamonaviy majmuaga aylantirilgan. Uning hududida bir vaqtning oʻzida koʻrgazma va savdo zonarlari, IT markazi hamda tashrif buyuruvchilar uchun barcha zarur qulayliklar yaratilgan. Yaʼni oʻquv zalidan tashqari “Book cafe”, “Kitob doʻkoni” va poligrafiya xizmatlari yoʻlga qoʻyilgan. Tuman yoshlari veb-dasturlash, grafika dizayni, robototexnika, sunʼiy intellekt asoslari hamda kompyuter savodxonligi boʻyicha bilimlarini oshirishlari mumkin. Ular uchun bepul Wi-Fi xizmati yoʻlga qoʻyilgan. Muxtasar aytganda, ushbu majmua bilim, innovatsiya, madaniyat va sifatli xizmatlar markazidir.

Davr ruhi aks etgan kitob

Yaqinda Zomin tumanidagi 60-umumtaʼlim maktabida Qudratilla Rafiqovning “MILLAT SHAHKATI” kitobi taqdimoti oʻtkazilgani ham Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan maʼnaviy-maʼrifiy jihatdan yuksak jamiyatni yaratish borasida amalga oshirila boshlangan ezgu ishlarning mantiqiy davomi boʻldi.

Taqdimotning aynan Zomin tumanidagi ushbu taʼlim dargohida tashkil etilganida ham teran ramziy maʼno mujassam. Bu maskan Prezidentimiz tahsil olgan maktab sifatida nafaqat tarixiy, balki maʼnaviy ahamiyatga ham ega. Chunki insonning dunyoqarashi, Vatanga muhabbati va kelajak haqidagi orzu-maqсадlari, avvalo, maktab dargohida shakllanadi. Shu bois mazkur taʼlim muassasasi kitob haqida soʻz yuritilishi, maʼrifat haqida mulohaza qilinishi va millat taqdiri xususida bahs-munozaraga keng oʻrin berilishi oʻziga xos maʼnaviy davomiylikni anglatadi.

Ishtirokchilar dastlab maktab muzeyi

bilan tanishib, unda saqlanayotgan tarixiy hujjatlar, fotosuratlar va noyob eksponatlar orqali davlatimiz rahbari hayoti va faoliyatining ilk bosqichlarini aks ettiruvchi boy ekspozitsiyani katta qiziqish bilan koʻzdan kechirdi.

Tadbirida taʼkidlanganidek, keyingi yillarda mamlakatimizda kitobxonlik muhitini mustahkamlash, ijodkor va noshirlarni har tomonlama qoʻllab-quvvatlash, mutolaani hayot tarziga aylantirish davlat siyosatining ustuvor yoʻnalishlaridan biri sifatida shakllandi.

faqat maʼlumot olmaydi. U bugungi tarixning qanday yaratilayotgani haqida oʻylaydi. Asar oʻquvchini voqealarni kuzatuvchi emas, ularning maʼnosini anglashga intiluvchi mushohada sohibiga aylantiradi. Shu jihatdan kitob kelajak avlod uchun ham bugungi davr ruhini aks ettirgan maʼnaviy hujjat sifatida qadrlidir.

Tafakkur va taraqqiyot uygʻunligi

Tarixning qiziq bir xususiyati bor. U voqealarni shunday holicha muhrlaydi,

“Yangi Oʻzbekistonning bugungi qudrati nafaqat keng koʻlamli bunyodkorliklarda, jahonda oʻz soʻzi va oʻrniga ega boʻlib borayotganida, balki maʼrifatni yuksak qadrlaydigan, kitobni hayot ehtiyoji deb biladigan jamiyatni barpo qilayotganidadir. Bunday jamiyatni hech bir gʻayir kuch oʻz tanlagan yoʻlidan qaytarolmaydi, parokanda etolmaydi. Ilgʻor tafakkurli xalq, albatta, oʻz maqsad-muddaosiga yetadi.

yuz berayotgan yangilanishlar koʻlami haqiqatan ham beqiyos.

Prezidentimiz rahbarligida amalga oshirilayotgan islohotlarning eng muhim jihati inson qadri davlat siyosati markaziga olib chiqilganidir. Natijada mamlakatni yangilash bilan birga insonning oʻzini ham oʻzgartirishga harakat qilinmoqda.

Ana shunday pallada publitsistikaning masʼuliyati yanada ortadi. Chunki u kunlik axborot bilan tarix orasidagi koʻprikdir. Gazeta sahifasida bosilgan har bir maqola ertaga arxiv hujjatiga aylanishi mumkin. Lekin hamma maqola ham vaqt sinovidan oʻtavermaydi. Baʼzi maqolalar bir kun yashaydi. Baʼzilari bir hafta. Ayrimlari esa yillar oʻtsa ham, oʻz ahamiyatini yoʻqotmaydi. Nega? Chunki ular voqeani emas, voqeaning maʼnosini tushuntirgan boʻladi.

Shu jihatdan kitobga kiritilgan maqolalarning ahamiyati beqiyos. Ushbu bitiklarda Yangi Oʻzbekistondagi hayotbaxsh oʻzgarishlar faqat taʼrifu tavsiflanmagan. Aksincha, ular ortidagi mantiqni ochishga harakat qilingan. Voqealar izohlangan. Tarixiy jarayonlarning ichki qonuniyatlari koʻrsatilgan. Eng



ammo ularning ruhini saqlab qololmaydi. Arxivlarda hujjatlar saqlanadi. Farmonlar, qarorlar, hisobotlar matbuot sahifalarida tarix mulkiga aylanadi. Lekin ushbu davr nafasini, unda yashagan odamlarning kechinmalari, jamiyatning ruhiy holati, oʻzgarishlar qanday tuygʻular bilan kutib olingani haqida koʻpincha kitoblar guvohlik beradi.

Shuning uchun ham ayrim asarlar shunchaki kitob boʻlib qolmaydi. Ular zamonning maʼnaviy solnomasiga aylanadi. Nazarimizda, “MILLAT SHAHKATI” kitobini ham ana shunday nuqtai nazardan baholash lozim.

Bugun Yangi Oʻzbekiston haqida koʻp gapiryapmiz. Bu tabiiy. Chunki mamlakatimiz hayotida keyingi yillarda

muhimi, ular oʻquvchini mushohada yuritishga undaydi.

Bu kitob Prezidentimizning faoliyati, shaxsiyati, oddiy inson sifatidagi fazilatlar haqida yozilgan asar, desak, toʻgʻri boʻladi. Shu bilan birga, u butun bir davr haqidagi kitobdir. Unda mamlakatimiz bosib oʻtayotgan tarixiy yoʻlning mazmun-mohiyatini anglashga va oʻquvchiga anglatishga intilish bor. Uni mutolaa qilar ekansiz, davlatimiz rahbarining naqadar tigʻiz kun tartibi koʻz oldingizdan oʻtadi. Olib borilayotgan ishlarning teran mohiyatini, Yangi Oʻzbekiston gʻoyasining shakllanish jarayoni qanday kechganini, milliy taraqqiyotimizning maʼnaviy asoslarini jiddiy mushohada qila boshlaysiz.

«Xalq soʻzi».

Zahid RAFIQ:

OʻZBEKISTON — MINTAQADAGI YETAKCHI IQTISODIY VA INVESTITSIYA MARKAZI



Oʻzbekistonda investitsiya muhitining yaxshilanishi “HRL Group” kabi kompaniyalarni yangi imkoniyatlarni izlashga undadi. Yuqori darajadagi muntazam muloqotlar va biznes-forumlar investorlar ishonchini yanada mustahkamladi.

Fikrimcha, kelgusida infratuzilmani rivojlantirish, sanoat loyihalarini, kon-metallurgiya sanoati, energetika, qishloq xoʻjaligi, qurilish va logistika sohaslaridagi hamkorlikni kengaytirish ustuvor vazifalardan boʻlishi kerak.

Markaziy va Janubiy Osiyoni bogʻlovchi samarali transport yoʻlaklarini rivojlantirish ikki mamlakat uchun ulkan iqtisodiy imkoniyatlarni ochadi. Qoʻshma korxonalar tashkil etish, texnologiyalar transferi va xususiy sektorlar oʻrtasidagi aloqalarni yanada kuchaytirish muhim ahamiyatga ega. Shunday ekan, Oʻzbekiston va Pokiston oʻrtasidagi munosabatlar istiqboli juda porloq ekaniga ishonaman.

– **Islohotlarning asosiy maqsadlaridan biri ochiq, investitsiyalar uchun jozibador va xalqaro iqtisodiy tizimga chuqur integratsiyalashgan iqtisodiyotni shakllantirish edi. Sizingcha, ushbu oʻzgarishlar xalqaro hamjamiyat, investorlar va rivojlanish boʻyicha hamkorlar ishonchini qay darajada mustahkamladi?**

– Prezident Shavkat Mirziyoyev boshchiligidagi soʻnggi oʻn yilda amalga oshirilgan islohotlar Oʻzbekistonning xalqaro biznes hamjamiyati oldidagi nufuzini sezilarli darajada oshirdi. Yangi Oʻzbekiston yanada ochiq, shaffof va xorijiy investorlar uchun jozibador davlatga aylandi. Biznes yuritish tartib-taomillarini soddalashtirish, qonunchilikni takomillashtirish va xususiy investitsiyalarni qoʻllab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlar xalqaro kompaniyalar va rivojlanish boʻyicha hamkorlar



ishonchini kuchaytirdi. Bugungi kunda koʻplab investorlar Oʻzbekistonda Markaziy Osiyoning eng istiqbolli bozorlaridan biri sifatida baholamoqda.

Nazarimda ushbu islohotlar mamlakatning uzoq muddatli iqtisodiy oʻsishi uchun mustahkam zamin yaratdi. Investorlar barqarorlikni, aniq siyosatni va doimiy takomillashuvga intiladigan davlatni qadrlaydi. Oʻzbekiston ana shunday fazilatlarni namoyon etmoqda.

– **Bugungi kunda Oʻzbekiston barqaror rivojlanish, “yashil” iqtisodiyot, raqamli transformatsiya, ilm-fan, taʼlim va inson kapitali sohaslarida faol tashabbuslarni ilgari surmoqda. Kelgusi yillarda ayni sohalarda hamkorlikni kengaytirish uchun qanday imkoniyatlarni koʻryapsiz?**

– Oʻzbekiston barqaror rivojlanish, raqamli transformatsiya, taʼlim va innovatsiyalar sohasida katta yutuqlarga erishdi. Bu yoʻnalishlar uzoq muddatli iqtisodiy oʻsishning asosiy omillaridir va hukumatning ularga qaratayotgan eʼtibori xalqaro aloqalar uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda.

Men qayta tiklanuvchi energiya manbalari, “aqlli” infratuzilma, raqamli texnologiyalar, kasb-hunar taʼlimi va ilmiy tadqiqotlar sohaslarida hamkorlik uchun katta salohiyatni koʻraman. Bu yoʻnalishlar ham Oʻzbekiston, ham uning xalqaro sheriklari uchun manfaatli boʻladi.

Kelgusi yillarda Pokiston va Oʻzbekiston bilim va tajriba almashish, zamonaviy texnologiyalarga investitsiya kiritish hamda yuqori malakali kadrlar tayyorlash orqali hamkorlikni yanada kengaytirishi mumkin. “Yashil” energetika, raqamli yechimlar, taʼlim va sanoat innovatsiyalari sohasidagi qoʻshma

loyihalar ish oʻrinlari yaratish, mehnat unumdorligini oshirish va barqaror taraqqiyotni taʼminlashga xizmat qiladi.

Oʻz navbatida, “HRL Group” bu kabi imkoniyatlarni oʻrganish va Oʻzbekistonning zamonaviy, raqobatbardosh hamda bilimlarga asoslangan iqtisodiyot barpo etish maqsadlariga hissa qoʻshishdan manfaatdor.

– **Oʻzbekiston qator xalqaro va mintaqaviy tashabbuslarni ilgari surmoqda. Sizingcha, ulardan qaysilari Markaziy Osiyo va xalqaro hamjamiyat uchun uzoq muddatli ahamiyatga ega boʻladi?**

– Oʻzbekistonning eng muhim yutuqlaridan biri – bu Markaziy Osiyoda mintaqaviy hamkorlik va oʻzaro bogʻliqlikni mustahkamlashga qatʼiy intilishi. Qoʻshni davlatlar bilan yaxshi qoʻshnichilik munosabatlarni rivojlantirish, oʻzaro savdoni kengaytirish, mintaqaviy transport va investitsiya loyihalarini qoʻllab-quvvatlash orqali mamlakat barqaror va iqtisodiy jihatdan oʻzaro bogʻlangan mintaqani shakllantirishga katta hissa qoʻshdi. Bu saʼy-harakatlar nafaqat Markaziy Osiyo, balki Pokiston kabi davlatlar uchun ham savdo, investitsiyalar va biznes munosabatlarni kengaytirish imkoniyatini yaratmoqda.

Shuningdek, Oʻzbekistonning barqaror rivojlanish, raqamli transformatsiya, taʼlim va ochiq iqtisodiyotga qaratilgan siyosati xalqaro miqyosda ham uzoq muddatli ahamiyat kasb etadi deb hisoblayman. Bu tashabbuslar Oʻzbekistonning raqobatbardoshligini oshirib, uni xalqaro investorlar uchun yanada jozibador qilmoqda hamda aholi farovonligini yuksaltirishga yangi imkoniyatlar yaratmoqda.

Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan soʻnggi oʻn yillikda ilgari surilgan qator xalqaro va mintaqaviy tashabbuslarning amaliy natijalari Oʻzbekistonda Markaziy va Janubiy Osiyoni

bogʻlovchi muhim koʻprik hamda mintaqaviy va xalqaro hamkorlikning ishonchli sherigi sifatidagi oʻrmini yanada mustahkamladi deb aytishga barcha asoslar mavjud.

– **Koʻplab xalqaro ekspertlar Yangi Oʻzbekiston islohotlarini mintaqadagi eng muvaffaqiyatli keng koʻlamli oʻzgarishlardan biri sifatida baholamoqda. Sizingcha, ushbu tajribaning qaysi jihatlar boshqa mamlakatlar uchun alohida qiziqish uygʻotadi va dolzarb hislanadi?**

– Oʻzbekiston islohotlari tajribasining eng qimmatli jihatlaridan biri – mamlakatning ochiqlik siyosati va doimiy takomillashuvga sodiqligi. Hukumat iqtisodiy liberallashuv, biznes muhitini yaxshilash, davlat institutlarini mustahkamlash va xorijiy investitsiyalarni jalb qilishga qaratilgan saʼy-harakatlarni bosqichma-bosqich amalga oshirdi. Bu muvozanatli va amaliy yondashuv investorlar hamda xalqaro hamkorlar ishonchini mustahkamlash bilan birga barqarorlikni ham taʼminladi.

Yana bir muhim saboq Oʻzbekistonning mintaqaviy hamkorlik va uzoq muddatli taraqqiyotga ustuvor ahamiyat qaratayotganidir. Mamlakat infratuzilma, taʼlim, raqamli transformatsiya va inson kapitaliga sarmoya kiritish bilan birga qoʻshni davlatlar bilan aloqalarni ham faol rivojlantirmoqda. Bu islohotlar barqaror oʻsish iqtisodiy taraqqiyotni mintaqaviy hamkorlik va inson kapitaliga investitsiyalar bilan uygʻunlashtirish orqali taʼminlanishini koʻrsatadi.

– **Kelgusi oʻn yillikka nazar tashlasak, Oʻzbekistonning barqaror rivojlanishini taʼminlash va uning jahon iqtisodiyoti hamda xalqaro munosabatlardagi oʻrnini yanada mustahkamlash uchun qaysi islohot yoʻnalishlari hal qiluvchi ahamiyatga ega boʻladi deb hisoblaysiz?**

Shu jihatdan qaraganda, asar qahramoni nafaqat davlatimiz rahbari, balki Oʻzbekistonning oʻzidir. Uning kechagi kuni. Buguni. Va ertangi istiqboli – shonu shavkatli kitobda bosh gʻoya darajasiga olib chiqilgan.

Faylasuflar shunday deydilar: “Xalqning buyukligi uning xotirasi bilan oʻlchanadi”. Xotira esa faqat oʻtmishni eslash emas, undan maʼno chiqara bilishdir. Agar millat oʻz tarixi haqida fikr yuritmasa, uni anglashga harakat qilmasa, u kelajak haqida ham chuqur oʻylay olmaydi.

Shu maʼnoda, kitobni tarix haqidagi mushohada deb qabul qilish mumkin. Chunki u oʻquvchini bir haqiqat haqida oʻylashga chorlaydi: bugun biz guvohi boʻlayotgan oʻzgarishlar kelajakda qanday baholalanadi? Ular toʻgʻrisida farzandlarimiz nimalar deydi? Biz bugungi kunni ularga qanday holda qoldiramiz? Bu savollar har birimiz uchun muhim.

Ayniqsa, kitobning yoshlar uchun ahamiyati katta. Chunki har bir avlod tayyor natijani koʻradi. Ammo oʻsha natijaga olib kelgan yoʻlni ham bilishi lozim. Bugungi tinchlikning qadriani anglash uchun kechagi tashvishlarni bilish kerak. Ayni imkoniyatlarning qadriga yetish uchun kechagi cheklangan sharoitlarni eslash zarur. Hozirgi taraqqiyotning mohiyatini tushunish uchun uning qanday siyosiy iroda, qanday masʼuliyat va mehnat evaziga qoʻlga kiritilganini anglash lozim.

Yillar oʻtib bugungi kun ham tarixga aylanadi. Davrimizning ruhi, uning orzu-umidlari va iztiroblari, ishonch va intilishlari kitoblarda saqlanib qoladi. Kitobning qadri ham ana shunda. U bugunni kelajak bilan bogʻlab turuvchi maʼnaviy koʻprik vazifasini bajaradi.

Kitobdan joy olgan “MILLAT SHAHKATI” maqolasida taʼkidlanganidek, biz, tarixi ming yillarga teng xalq, oʻtmishi afsonaga aylangan yurt farzandlari sifatida qalbmizda milliy gʻurur tuygʻusini shakllantirishni oʻrganishimiz bugun juda dolzarb.

Bundan 6-7 asr ilgari bu yurtda koʻtarilgan muazzam bayroq oʻz atrofida jahonni birlashtirgan, oʻziga qaratgan edi. Bu, shubhasiz, buyuk sohibqiron bobomiz Amir Temur qurgan qudratli davlatning bayrogʻi edi.


Oradan qariyb yetti asr oʻtib, uzoq yillar koʻzdan panada qolgan oʻsha bayroq bugun yana hilpiray boshladi. Bu bayroq bugungi Yangi Oʻzbekistonning bayrogʻidir.

Muallif ushbu fikrga urgʻu qaratar ekan, davlatimiz rahbariga yuzlanadi: “Bugun jahon uzra magʻrur hilpirayotgan ushbu bayroqni Siz koʻtardingiz, muhtaram Shavkat Miromonovich!”

Ishtonimiz komilki, samimiy bu eʼtirof butun xalqimizning koʻnglidagi gap, ayni paytda milliy gʻururining tirgak-tayanchidir.

Soʻnggi yillarda amalga oshirilgan 52 ta oliy darajadagi tashrif davomida 213 milliard dollarlik 1 ming 617 ta investitsiya loyihasi boʻyicha kelishuvlarga erishilgan.

“Dunyo” AA.
Islomobod



Birinchi qism

Ranj-u alamlardan bezgan zamin musaffo tongni qarshilayotgan chogʻlar edi. Bu mahalda ulugʻvor togʻlar teran sukutga choʻmgan, toshlar ming yillik sabr-u toqat ixtiyorida moviy osmonga umid ila boqardi. Ayni lahzalarda yer bagʻrida bir tomchi koʻz ochdi. U – mitti bir jon, yashashga oshufta, hayotda oʻz yoʻlini izlardi.

Shu tariqa tomchining uzoq va mashaqqatlarga boy umr yoʻli boshlandi. Avvaliga u yolgʻiz edi, soʻng unga boshqa tomchilar ham yoʻldosh boʻldi. Ular kundan-kunga bir-birini topib, bir-biriga suyanib, kichik bir jilgʻaga aylanishdi.

Ha, irmoqning yaralishi oson kechmadi. Tomchilar bu yoʻlda necha-necha qoyalarga urildi, azim va beshafqat toshlarga duch keldi, tik jarliklardan quladi. Biroq koʻzlagan manzili sari dadil boraverdi, hech qachon ortga qayrilgani yoʻq. Chunki ular hayotning maʼnosi harakat va chidamda ekanini yaxshi bilardi...

Qalbiga jo etdi yillar hasratin,
Azaliy taqdirning soʻnmas zahmatin.

Solib toshlar ichra hayajon, titroq,
Togʻlarning bagʻrida tugʻildi irmoq.

Joʻr boʻldi yashamoq qasidasiga,
Shoni-sharafiga, nashidasiga.

U bilmas, oldinda ne-ne yoʻllar bor,
Choʻng toshlar, qoyalar, toʻsiqlar bisyor.

Koʻpdir oʻzanlarni burguvchilar ham,
Bemaqsad, xom xayol surguvchilar ham.

Shom oʻtib, uygʻonar necha bor tonglar,
Gohida gul tutib, toʻkar xazonlar.

Yomgʻir-u qorlarni kechirgay boshdan,
Lek tinmay jildirab shoshgani shoshgan.

Shamol-u boʻron ham qolmas izidan,
Soʻlgʻinlik sezilmas rangpar yuzidan.

Shaffoflik bagʻrida bor vujudi pok,
Dam kelar goh quvnoq, gohida gʻamnok.

Manzillar olisdir, yoʻllar beshafqat,
Yetarmi bu yoʻlda bardosh-u toqat?

Oldinda daryo-yu dengizlar chorlar,
Osmonda umidvor yulduzlar porlar.

Yaralish koʻyida qiynalganda jon,
Bir qaygʻu kelardi besharaf, beshon.

Diliga umrlik dardni soldi u,
Judolik qoshida mahzun qoldi u.

Yoʻqotdi bir zumda yoʻgʻ-u borini,
Yer-u koʻk tinglamas endi zorini...

Ammo maqsadlarga berib kuch-chidam,
Yoʻlda davom etar ne boʻlganda ham...

Vahshiy qoyalarni pisand etmas u,
Bu ilinj koʻyida nolon ketmas u.

Boradir bahor-u kuzlar oralab,
Qishlar-u yozlarni asta allalab.

Hayot deganlari harakat bilan,
Koʻngilga nur sochgay barakat bilan.

Kim yoʻldan qaytmasa, soʻnmasa shashti,
Oliy unvon bilsa agar yashashni,

Umlar ichida umr quradir,
Davronlar ichida davron suradir.

Qolgani bekor gap, qolgani roʻyo,
Buni necha bora haq etmish dunyo.

Irmoqning matlabi togʻlardan nari,
Yuksaklik ishqida intilishlari.

DARYODIL

(Doston)

Xudo menga sogʻliq berib, umr bersa, bizda kambagʻallik va ishsizlik boʻlmaydi. Nimaga desangiz, bunga men yetti yil umrimni tikdim. Tizim yaratdim, qonun yaratdim, dunyoni ochib berdim. Xalqim yaxshi yashasin, niyatlari amalga oshsin, bolalari baxtli boʻlsin, nevaralari sogʻlom tugʻilsin, maktabi ishlasin, yoʻllari ravon boʻlsin deb ishga keldim...

Shavkat MirziYoyev,
Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti

Ammo, demishlarki ulugʻlar abas:
Yolgʻiz otning dongʻi, changi ham chiqmas.

U endi doʻst topar oʻzidek dilgir,
Oʻzidek umidli, oʻzidek olgʻir.

Soʻngra oshaverar dovonlardan ham,
Bogʻlar-u rogʻlardan yobonlardan ham.

Qismatning qilgani turfa, ming kordir,
Bu yoʻllarda doʻst-u dushman ham bordir.

Toʻsiqlar oldini toʻsar dam-badam,
Toshlarning ishi shu... Qoladi muham.

Umrning shundayin roʻyolari koʻp,
Kirdikori koʻpdir, riyolari koʻp.

Yoʻq, ularga boqmas, oldinga yelar,
Shu mahal qaydandir bir sado kelar...

Ikkinchi qism

Chindan ham, shu mahal qaydandir irmoqning orzulari va niyatlarga esh boʻlgan, uni faqat va faqat olgʻa chorlaydigan bir sirli ovoz eshitildi.

U avvaliga bu umidbaxsh nido qayerdan kelayotganini angolmadi, faqat bor vujudi quloqqa aylanib uni tinglayverdi.

Bu asror toʻla sadoda irmoqqa olis manzillarning oydinligi, daryoga aylanishning umrboqiylikka tatiydigan lazzati hamda hayot mazmunini topish yoʻlidagi harakatlar besamar ketmasligiga ulkan ishonch bor edi...

Kim zulmat asiri, kim nurga oshiq,
Hayot timsolidir koʻz-u qorachiq,
Boraver, yoʻllaring nurafshon, ochiq,
Sen ularga boqma, toʻxtama, irmoq!

Orzularing xolis, umidlar durkun,
Olovga aylanar hattoki uchqun,
Mushkullaring oson boʻljak bir kun,
Sen ularga boqma, toʻxtama, irmoq!

Borligʻing yoʻgʻrilgan obihayotdir,
Ezgulik aslida senga qanotdir,
Shashting qudrati ham haddan ziyoddir,
Sen ularga boqma, toʻxtama irmoq!

Ne ajab, uchrasa nogahon xaslar,
Qalbingda ne kechar, aslo bilmaslar,
Oh, senga yelkadosh, hamroh boʻlmaslar,
Sen ularga boqma, toʻxtama, irmoq!

Toledan kutmagil mushkulsiz rohat,
Qalbingda gullasin bardosh-u toqat,
Topgaysan, albatta, bir kun farogʻat,
Sen ularga boqma, toʻxtama, irmoq!

Dunyo deganlari shunday poʻrtana,
Tashvish keltiradi mudom joʻrtaga,
Jonigʻni bekorga, qoʻygin, oʻrtama,
Sen ularga boqma, toʻxtama, irmoq!

Ulugʻ daryolarga intil hamisha,
Ularning yoʻlini yoʻl bil hamisha,

Oʻyna, yasha, toshgin va kul hamisha,
Sen ularga boqma, toʻxtama, irmoq!

Tunlar zulmatidan hayiqma aslo,
Toshlar minnatidan hayiqma aslo,
Kelar kulfatidan hayiqma aslo,
Sen ularga boqma, toʻxtama, irmoq!

Soflikning betakror timsolidirsan,
Orzularning moviy xayolidirsan,
Yashashning eng goʻzal misolidirsan,
Sen ularga boqma, toʻxtama, irmoq!

Baxt-u farahbaxshlik shoni oʻzingsan,
Yashnagan bogʻlarning qoni oʻzingsan,
Umidvor dov-daraxt joni oʻzingsan,
Sen ularga boqma, toʻxtama, irmoq!

Qismat kitobini oʻqib betma-bet,
Olgʻa yur, eng goʻzal maʼvolarga yet,
Deymanki, davom et, yoʻlda davom et,
Sen ularga boqma, toʻxtama, irmoq!

Uchinchi qism

Irmoglarni nimaga yoxud kimgadir oʻxshatish kerak boʻlsa, koʻplab timsollarni misol keltirish mumkin.

Deylik, umid irmoqlari, ishonch irmoqlari, ezgulik irmoqlari, his-tuygʻular irmoqlari...

Haqiqatan, sanab adogʻiga yetish mushkul.

Asosiysi esa ularning bari toshqin, joʻshqinlikka boy...

Bugun ona Vatanimning irmoqlariga nazar solib, ich-ichimdan faxr tuydim, shodlandim. Ular boshdan kechirgan tashvishlar, yoʻllariga gʻov boʻlgan necha-necha qoyatoshlar ham esimga tushdi. Ha, bu kunlarga yetib kelish oson boʻlgani yoʻq, ular birlashib azim daryoga aylangunicha ne-ne gʻamlar chekmadi, achchiq ogʻriqlarga roʻbaroʻ kelmadi, tashvishlar ostida qolmadi.

Biroq yolgʻiz tasalli shuki, ular shu paytgacha yetib kelgan daraja oʻzlari oʻylaganidan ancha yuksakda...

Zaminning orzumand buloqlaridan,
Suv ichib, bir yorugʻ xayol surajak.
Xalqim bu umidbaxsh irmoqlaridan,
Daryo otligʻ joʻshqin Vatan qurajak!

Ne-ne dovonlardan omon oʻtolgan,
Qirrador toshlarga berolgandir chap.
Uning yuragiga ogʻriqlar solgan,
Qiyinchilik ichra kechgan roʻzi-shab.

Tashvish kelganida solib urho-ur,
Qaygʻular oʻzini qilganida fosh,
Baxsh etdi koʻngilga tuganmas surur,
Bera oldi ne-ne azoblarga dosh.

Hayotning sinovi koʻp erur muqim,
Qoʻrqmadi umrning yolgʻon, rostidan.
Oqib oʻtaverdi doim sokin, jim,
Berahm toshlarning oyoq ostidan...

Endi koʻring qaytmas shijoatini,
Har qanday toshni ham yoraman, deydi.

Yod aylab ulugʻlar matonatini,
Oʻzanlar yoʻlidan boraman, deydi.

Uqdi har kim bugun dil xatrlaringni,
Bu asriy qoyalar soʻng boʻlsin, irmoq.
Asragin pokiza niyatlaringni,
Yoʻllaring hamisha oʻng boʻlsin, irmoq.

Kun kelar...
Bu totli kunlardan uzoq,
Oʻshanda koʻz yorib koʻngil qatidan,
Ne-ne jilgʻalarga berarsan saboq,
Daryoga aylanmoq saodatidan!

Toʻrtinchi qism

Nihoyat, irmoqlardagi shiddat, intilish, ezgulik ularni daryoga aylantirdi. Bu azim kuchning vujudida togʻlardan erigan qorlar musaffoligi, buloqlar pokligi, zamin barakasi mujassam. U qayerdan oʻtsa, oʻsha yerda hayot uygʻonadi.

Kecha qumlar toʻzib yurgan saholarda bugun yashillik bosh koʻtaradi. Qaqrab yotgan maysalar tomirlariga jon kiradi. Qurish arafasida turgan giyohlar yana nafas oladi. Daraxtlar uning suvidan kuch olib, osmonga intilgan shoxlarini keng yozadi. Daryo oʻtgan joylar atrofida qishloqlar qad rostlaydi. Qishloqlar ortidan shaharlar paydo boʻladi. Bogʻlar, maydonlar, maktablar, kutubxonalar qad koʻtaradi.

Daryo endi faqat sohillarni emas, butun atrofni sugʻoradi. Va nihoyat... u dengizlargacha yetib boradi. Ulkan suvlar bilan uchrashadi. Okeanlar bagʻridan joy oladi. Yaxshilik hech qachon yoʻqolmaganidek, ezgulik yoʻlida oqqan daryo ham hech qachon izzis yoʻqolmaydi. U abadiyatga aylanadi...

Koʻngli koʻngillardan ayro boʻlolmas,
Oʻzicha bir olam, dunyo boʻlolmas,
Shovullab, koʻpirib oqishi mumkin,
Bunda har kimsa ham daryo boʻlolmas.

Daryolik – yashnatmoq, gullatmoq asli,
U bilan bahordir umr har fasli,
Chamanlar joniga oro kirgazgan,
Sahrolar u kelsa boʻladi taslim.

Yoʻllar goh suronli, goh toʻfonlidir,
Ammoki hamisha sharaf-shonlidir,
Daryo davom etar joʻshqin, toʻxtamas,
Har lahzasi baxt toʻla, imkonlidir.

U yetgan joylarda gurkurar tuproq,
Novdalar uygʻonib yozadi yaproq,
Oʻzgacha libosga burkanar ochun,
Hayot nafasidan shodlanar har yoq.

Nur olgan oʻziga nur bisotidan,
Har tomchi hayotbaxsh uning qatida,
Shomlardan tonglarga yetar baribir,
Matonat, sadoqat bor toqatida.

Jilgʻalar qoʻshigʻi yetganda tobga,
Jilmayib boqadi gulgun oftobga,



Daryodil daryoday shoshadi har dam,
Borligʻin bagʻishlab yashar shitobga.

Koʻchalar koʻrk olgan u solgan avjdan,
Ezgulik yelkalab oqqan har mavjdan,
Olamda boshqa bir azizi yoʻqdir,
Avaylar ularni tashvish-u ranjdan.

U bilan yashnaydi qishlogʻ-u shahar,
Qoʻshigʻin kuylasa sharqiroq agar,
Necha-necha jonga jon bagʻishlagan,
Daryodir har lahza bunda muzaffar.

Yashar baxt, omadi kulganda dunyo,
Bitar sabr guli soʻlganda dunyo,
Yanada goʻzalroq boʻljak albat,
Qalbi daryolarga toʻlganda dunyo.

Esmasin qismatda yovuz yellari,
Joʻshqinlikka toʻlsin oy-u yillari,
Tilayman hamisha: mangu bor boʻlsin,
Muqaddas yurtimning daryodillari!

Beshinchi qism

Bugun jonajon Vatanimizni obod qilishga, shu yurtning gullab-yashnashiga umrini bagʻishlagan hazrati insonni ana shu azim daryoga oʻxshatgim keldi. El-u yurt taqdiriga oʻzini bagʻishlagan insonning daryoday betinim shiddatkor hayotini, daryodilligini eʼtirof etmay boʻladimi?!

Uning ulugʻvorligi, daryodilligi – kuchli boʻla turib vayron qilmaslik, qudratli boʻla turib mehribon qolish, shijoatli boʻla turib, rahm-shafqatni unutmaslik... Borliq unga hayrat bilan qaraydi. Togʻlar uning matonatiga tan beradi. Oʻrmonlar uning saxovatidan bahra oladi. Qushlar uning sohillarida qoʻshiq aytadi. Hatto sahro shamollari ham uning sabotini koʻrib, lahzaga jim qoladi. Daryodilning har bir qadami yashash haqidagi qoʻshiqdir. Uning atrofidagi har bir giyoh, har bir daraxt, har bir qush va har bir inson qalbida yashashga ishtiyoq yanada kuchayadi.

U dengizlarga quyilganda ularning suviga faqat hajm emas, maʼno ham qoʻshadi. Okeanlarga yetib borganda ularning bagʻriga ezguliklarni, yashash zavqini ham olib kiradi. Chunki poklik har qanday buyuklikdan ustun. Daryodil nafasi yetgan joyda yashillik, tinchlik, hamkorlik qaror topadi, insoniyat olam ichra oʻz istiqboli uchun munosib kuch-qudratga ega boʻladi.

Dunyo shunday talatoʻp, hayot shunday sir ekan,
Masofalar uzoqdir, bitmaydi suronli yoʻl,
Yashnatmoqning ishqida yashaydi bir daryodil,
Bir daryodil odamki, Vatan degan, xalq degan!

Bunda niyatlar oliy, bunda maqsadlar ulkan,
Eng ulugʻ dovonlarni mudom koʻzlab borar u,
Mehr-u muhabbatini qalbga soʻzlab borar u,
Bir daryodil odamki, Vatan degan, xalq degan!

Joʻshqin-joʻshqin hislarga yuragi lim-lim toʻlgan,
Hayotini aylarkan har zum yashnashga yorlar,
Irmogʻ-u jilgʻalarni mudom bagʻriga chorlar,
Bir daryodil odamki, Vatan degan, xalq degan!

Hayot nashidasini eng aziz tuhfa bilgan,
Kunlari oʻtayotir tinchlig-u himmat ichra,
Har zamon yashaguvchi mehnat-u zahmat ichra,
Bir daryodil odamki, Vatan degan, xalq degan!

Asrlar osha suzar ezgulik nomli yelkan,
Yashar har bitta yili tengdir katta zamonga,
Nafasi surur bergan ona Oʻzbekistonga,
Bir daryodil odamki, Vatan degan, xalq degan!

Illo, yoʻllaring oydin, baxt-u omading kulgan,
Masrurliging bardavom, tinchliging ham bardavom,
Shunday daryodil boʻlsin xalqim boshida mudom,
Bir daryodil odamki, Vatan degan, xalq degan!

Oʻtkir RAHMAT.

